

Navoiy viloyati statistika boshqarmasi



2018 yil yanvar-oktyabr oylarida Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi 18255,5 mlrd. so'mni, o'sish 2,5 %ni tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati -100,8 %
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - 11,9 %
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – 15,0%

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida viloyatimiz korxonalaridan 18255,5 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,5 % ni tashkil etdi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 66,6 % tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishning oshishiga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan ham munosib hissa qo'shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 27,7 %, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,8 % tashkil etdi.

2018 yil yanvar-oktyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi








Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5063,1 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 27,7 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-oktyabr oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12156,2 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 66,6 % ni tashkil etdi.

Yanvar-oktyabr oylarida Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
Portlandsement, ming tonna			
3073,2		3057,5	99,5
Shifer, tonna			
3349,20		27846,9	831,4
Ammoniy nitrat, ming tonna			
111,75		180,1	110,7

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
-------------------------------	---	-------------------------------	----------------------

Temir beton, ming tonna

21,284



42,200

198,3

Paxta tolasi, ming tonna

30,100



18,814

62,5



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 968,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,3 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 68,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ni) tashkil etdi.




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 2170,4 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-oktyabr oylariga nisbatan 100,8 %, jami sanoatdagi ulushi esa 11,9 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar- oktyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari




**Yanvar-oktyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab
chiqarish hajmining tarkibi, % da**



Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.


Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Navoiy shahri (viloytda sanoat ishlab chiqarish hajmning 81,9 % ulushini), Karmana (9,2 %), Qiziltepa (2,9 %), Xatirchi (2,0 %), Navbahor (1,4 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida shahar va tumanlarda
sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi, %**




Shu bilan birga eng kam ulush Tomdi (0,2 %), Konimex (0,3 %), Uchquduq (0,4 %), Nurota (0,8 %) tumanlari va Zarafshon (0,9 %) shahriga to'g'ri keladi.

2018 yilning yanvar-oktyabr oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi o'sish sur'atlari , %



Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Qiziltepa tumani (2017 yilning yanvar-oktyabr oylariqa nisbatan 105,5 %), Karmana (124,1 %), Uchquduq (100,0 tumanlari va Zarafshon (103,8 %), Navoiy (101,1 %) shaharlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.


2018 yil yanvar-oktyabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmlari va o'sish sur'atlari



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.


2018 yil yanvar-oktyabr oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishi keskin faollashdi. Natijada ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 15,0 % tashkil ettdi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi Navoiy shahrida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 3,4 %), Karmana (49,9 %), Navbahor (80,2 %) ,Xatirchi (80,0 %),Qiziltepa (80,9 %), Nurota (99,5 %), Konimex (100,0 %), Tomdi (100,0 %), Uchquduq (100,0 %), tumanlarida hamda Zarafshon shahrida (79,0%) kuzatildi



Bugungi kunda viloyatimizda 1759 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 549 tasi Navoiy shahrida, 315 tasi Karmana, 247 tasi Nurota, 190 tasi Qiziltepa, 123 tasi Xatirchi, 88 tasi Navbahor, 71 tasi Uchquduq, 40 tasi Tomdi, 35 tasi Konimex tumanlarida va 101 tasi Zarafshon shahrida joylashgan.

2018 yil 1 noyabr holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni



Joriy yilning yanvar-oktyabr oylari davomida viloyatimizda 331 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 22,1 % Navoiy shahriga to'g'ri keladi.

